

**OLIV TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA O'QUV FAOLIYATI MOTIVATSIYASI  
SHAKLLANISHINING BUGUNGI ZAMON BILAN BOG'LANGANLIGI (OLIV TA'LIM  
SOHASIDAGI SO'NGI O'ZGARISHLAR MISOLIDA)**

**Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li**

*FarDU Sirtqi bo'lim, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur oliy ta'lim muassasalari talabalarida o'quv faoliyati motivatsiyasi shakllanishining bugungi zamon bilan bog'langanligi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning tavsiyalari ifodalangan. Shuningdek, maqolada mazkur masala yuzasidan muallif tomonidan shakllantirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ham o'z ifodasini topgan.*

**Kalit so'zlar:** *Motivatsiya, motivlar, onlayn, professional, inspeksiya, inklyuziv, modernizatsiya.*

**Аннотация:** *Высказаны рекомендации научных исследований о связи формирования мотивации учебной деятельности у студентов этих высших учебных заведений с современным временем. Статья также содержит научное предложение и практические рекомендации, сформулированные автором по данному вопросу.*

**Ключевые слова:** *Мотивация, мотивы, онлайн, профессионал, проверка, инклюзивность, модернизация.*

**Abstract** *The recommendations of scientific research on the connection of the formation of educational activity motivation among students of these higher educational institutions with today's time are expressed. The article also contains the scientific proposal and practical recommendations formulated by the author on this issue.*

**Key words:** *Motivation, motives, online, professional, inspection, inclusive, modernization.*

Bugungi kunda ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020-yil 23 sentabr kuni qabul qilingan bo'lib, uning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Mazkur Qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy prinsplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi, unda belgilangan masofaviy ta'lim haqidagi qoidalar o'quv rejalarini va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan. Shuningdek, Qonunga ko'ra, davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari

Prezident yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo'ldi. Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'rischilari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziya Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan bo'ldi. Qonunda dual ta'limga oid qoidalar belgilanib, u ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, qonunga inklyuziv ta'lim to'g'risidagi qoidalar kiritilib, unga binoan, inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etadi. Mazkur qonun jahon standartlari talablaridan kelib chiqqan holda ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning qamrovi kengligi va o'ziga xos xususiyatga ega ekanligi bilan 1997-yil 29-avgust kuni qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonundan tubdan farq qiladi. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ma'lum qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Hususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Ta'lim sohasidagi islohotlar ham bugungi kunda o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir.

Yangilanayotgan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar zamirida oliy ta'limning o'rni va ahamiyatiga ulkan xissa qo'shildi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ilm-fan taraqqiyoti, ta'lim rivojlanishining kelgusidagi har bir muvaffaqiyati, muammoli masalalari echim topishi xayotiy masala ekanligi teran tushuntirildi.

Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek ta'lim tizimi bir necha million fuqaroni birlashtirib, mamlakatning ertangi kuniga birinchi galdagi daxldor soha ekanligi barchamizga ayon bo'lib bormoqda. Shuningdek, globallashuv jarayoni shiddat bilan rivojlanishni taqazo etayotganligi ham kundek ravshan. Bejizga 2016-2020 yillarning may oyigacha oliy ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan 62 dan ortiq me'yoriy huquqiy xujjatlar qabul qilinmaganligini teran anglamog'imiz lozim. Biz shu o'rinda ularning ba'zilariga to'xtalib o'tsak, mavzuning mazmun moxiatini tushunarli bo'ladi. Oliy ta'limning yangi sifat bochqichiga ko'tarilishiga xizmat qiluvchi ushbu Farmon va qarorlarning qabul qilishni yoshlarimizning jaxonning rivojlangan mamlakatlardagi ta'lim standartlariga to'la mos

keladigan bilimlarni egallashlariga, ularning ijodiy va intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu me'yoriy xujjatlar yana shunisi bilan e'tiborliki unda faqatgina yutuqlar sanab o'tilmay, ishchan tanqid, muammolarni e'tirof etish orqali kelajak taraqqiyot uchun konstruktiv g'oya va takliflar belgilangan.

Davlatimiz rahbari 2019-yil 24-may kuni O'zbekiston Milliy universitetida oliy ta'lim va ilm-fan namoyondalari bilan uchrashdi. Uchrashuv chog'ida bugunda ilmiy tadqiqotlar, ta'lim tizimida sifat jihatidan tubdan yaxshilash borasida qator fikrlar bildirildi va moddiy texnika bazasini yaxshilash uchun 6 mln dollar hajmida moliyaviy ko'mak ajratishga ko'rsatmalar berildi.

Olim va pedagoglarning ijtimoiy sharoitlarini yaxshilash masalalari alohida e'tibor qaratib, ular uchun ko'p qavatli uylar qurish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Shunga muvofiq Talabalar shaharchasi 6 ta 9 qavatli uylardagi 216 ta xonadosh tayyor xolda foydalanishga topshirildi. Davlatimiz rahbari Olmazor massiviga tashrifi doirasida mazkur uylarda yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi, xonadon egalari bilan suhbatlashdi. Xonadon egalari tabriklar ekanlar, "Biz olim va pedagoglardan natija kutardig-u, sharoitini so'ramasdik. Sizlarni ham rozi qiladigan vaqt soat keldi. Ilmli odamlar – mamlakatimizni oltin fondi. Ularning qo'lida kelajagimiz bo'lgan bolalarimiz tarbiyalanadi"- deb niyat bildirdi.

Yuqoridagi fikrlar, niyatlar amaliy ish xarakteriga aylanayotganligi xayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Ushbu safar davomida Innovatsion rivojlanish Vazirligining yangi binosi bilan tanishish chog'ida Prezident: "Mamlakatimiz yuqori texnologik sohalar bo'yicha dunyoda ortda qolib ketgan. Barcha sohalarni modernizatsiya qilish, jahon bilan hamqadam bo'lish uchun Innovatsion rivojlanish Vazirligi tashkil etilib, shunday sharoitlar yaratdik. Bu jamoa yil yakuni bo'yicha aniq amaliy natijalarni ko'rsatishi kerak,- deya ta'kidladi.

Bugungi kunda Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani ta'minlash uchun zarur tizim yaratildi. Ilmiy tadqiqot muassasalari va olimlarning innovatsion g'oya va loyihalari qo'llab-quvvatlanib, qiymati 28.2 milliard so'mlik 31 ta startap loyiha moliyalashtirildi. Xalqaro hamkorlik doirasida 2020-yil birinchi choragi davrida Germaniya, Rossiya, Belorusiya'dagi sheriklar bilan 9.6 mlrd so'mlik 38 ta qo'shma loyiha amalga oshirilmoqda.

Olimlarga yaratilayotgan sharoitlar, ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan tanishuv chog'ida davlatimiz rahbari talaba yoshlarning chuqur bilim olishlari masalasiga to'xtalib, "Yoshlar imtixonidan o'tish uchun emas, bilimli mutaxassis bo'lish uchun o'qishlari lozim", deb ta'kidladi. Chunki davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan barcha sa'yi-harakatlar, xalqimizning orzu-umidi yoshlarimizning etuk, bilimdon, sog'lom fikrli bo'lishida namoyon bo'ladi.

Ta'lim tizimining keyingi bosqichi oliy ta'lim sohasida ham ulkan islohatlar olib borishmoqda. 2018-yilda yurtimizda xalqaro talablarga javob beradigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. 2018-yilning o'zida mamlakatimizda

jami 13 ta oliy ta'lim muassasasi jumladan Samarqanda "Ipak yo'li" turizm xalqaro universiteti, Janubiy Koreyaning Puchon universiteti, Inxa universitetlari filiallari, AQShning Vebster universiteti filiali ish boshladi. Turkiyaning Iqtisodiyot va texnologiyalar universitetining Toshkent shahridagi filiali, Toshkent shahridagi "MEI" Milliy tadqiqot universiteti" Federal davlat byudjeti oliy ta'lim muassasasi filiali, "MMFI" milliy tadqiqot yadro universiteti" federal davlat avtonom OTMning Toshkent filiali, Toshkent shahridagi Belarus-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti faoliyat olib bormoqdalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi PQ-4740-son qaroriga muvofiq Geologiya fanlari universiteti tashkil etildi.

Yuqorida keltirilgan me'yoriy xujjatlarning amalga oshirilishidan kelgan natijalar oliy ta'lim muassasalarining taraqqiyotida qanday aks etganligi bugungi kun uchun xam kelajak rivojlanishimiz uchun xam katta ahamiyatga molik masaladir. Oliy ta'lim muassasalarining real imkoniyatlaridan kelib chiqib, qabul kvotalarini mustaqil belgilash tizimi joriy etishga yo'l ochildi. Shu bilan birgalikda bu oliy ta'lim olish istagidagi yoshlarimizga bir vaqtning o'zida bir necha oliy o'quv yurtlariga xujjat topshirish imkoniyati oliy ta'lim olishda teng imkoniyatlar yaratilishini ta'minlaydi. Oliy ta'lim tizimida kvota institutning yo'q qilish sari izchil qadam tashlanmoqda. Fuqarolarimizning chet davlat OTM larda O'zbekiston OTM lariga o'qitishni ko'chirish soddalashtirildi. 2019-2020 o'quv yilida o'qishni ko'chirishga yalpi ravishda ruxsat berildi. Minglab talaba yoshlar respublikamiz OTM larida o'qishni davom ettirishga muvaffaq bo'ldilar.

Ko'proq kattalar o'zlari uchun yaxshiroq ish topishlariga intilib, virtual stollarda o'tirishadi. Va nihoyat, "kattalarni o'qishga qanday rag'batlantirish kerak?" yopiq emas. Kattalar uchun o'qish yo'lida ko'plab to'siqlar mavjud. Keeling ularni yengishga harakat qilaylik. Voyaga yetgan odamning boshi bolanikiga qaraganda ancha zichroq turli xil fikrlarga to'la. Ehtimol u onlayn kursning topshiriqlarini bajarishni xohlaydi. Lekin u o'zini silkitdi. Bundan tashqari keksa odamlar o'zlarining ta'limdagi sa'y-harakatlarning samarasini yosh talabalar kabi aniq his etmaydilar ularning o'rganish odatlari ham uzoq vaqt fonga o'tib ketgan yoki hatto butunlay unitilgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Rakhmatdjonov Shokhjahan Dilshodbek o'g'li //THE ROLE OF PHYSICAL CULTURE IN PROVIDING THE PSYCHOLOGICAL HEALTH OF THE ATHLETE// INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. International scientific online conference. Canada. Part 2, 23.01.2022. 1-3
2. Raxmatjonov Shoxjahan Dilshodbek o'g'li //SPORTCHI PSIXOLOGIK SALOMATLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR// GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ). Vol. 10, Issue 11, Nov.(2022). 117-121 pages.

3. QURBONOVA, S., & RAXMATJONOV, S. (2023). MAMLAKATIMIZ PSIXOLOGLARI ISHLARIDA SHAXSLARARO MUNOSABATDA MUOMALA MUAMMOSINING TALQINI. *Journal of Pedagogical and Psychological Studies*, 1(5), 99-103.
4. Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbeko'g'li //SPEECH ISSUES IN PSYCHOLINGUISTICS// IQRO JURNALI № 2. 04.2023. 503-511 betlar.
5. Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li, Vosiljonov Azizbek Boxodirjon o'g'li //XORIJ PSIXOLOGLARINING ISHLARIDA SHAXSNING TADQIQ ETILISHI// INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. Vol. 1. № 12, 2022. 39-47 pages.
6. Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li //TALABALARDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISH – IJTIMOY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA// International Journal of Economy and Innovation. Volume: 30. 2022. 66-70 pages.
7. Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li //PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE SPORTSMAN PERSONALITY DURING COMPETITIONS// IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. [Vol. 2 No. 11 \(2022\)](#). 215-221 betlar.
8. **Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li //Motiv Va Motivatsiya Muammosining Jahon Va Mahalliy Psixologlar Tomonidan Tadqiq Etilganligi// American Journal of Social and Humanitarian Research, Vol. 3 No. 11 (2022). 256-259 pages.**
9. Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li //TOLERANTLIK SHAKLLANAYOTGAN SHAXS MODELINING TAVSIFI// International scientific journal «MODERN SCIENCE AND RESEARCH». VOLUME 2 / ISSUE 5 /2023. 761-764 pages.
10. Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li. (2023). PSIXOLOGIYADA MOTIVATSIYA TURLARI, NAZARIYALARI VA TAHLILI. *Научный Импульс*, 1(10), 665-670.
11. Raxmatjonov, S. (2023). DESCRIPTION OF THE PERSONALITY MODEL FOR FORMING TOLERANCE. *Modern Science and Research*, 2(5), 761-764.
12. Парпиева О., Хайриллов Х., & Ғофуржонов. Д. (2023). ПСИХОГИГИЕНА ҲАҚИДА ТУШУНЧА. *Scientific Impulse*, 1(7), 512-515.
13. Parpiyeva O., G'ofurjonov, D., & Hayrilloev, X. (2023). BIOETIKA O'RGANADIGAN ASOSIY MUAMMOLAR. *Scientific Impulse*, 1(7), 508-511.
14. СОЛИЕВ ФАРХОДЖОН СОДИКОВИЧ, АБДУЛЛАЕВА АРОФАТХОН РУСТАМОВНА, ДЖУХОНОВА НОХИДА ХАЁТЖОНОВНА //ФОРМИРОВАНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И ЭТНОЦЕННОСТНЫХ ОРИЕНТАЦИЙ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ// Материалы Международной заочной научно-практической конференции: ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ БЛАГОПОЛУЧИЕ СОВРЕМЕННОГО ЧЕЛОВЕКА. Екатеринбург, 2019. 334-339 стр.
15. Xalimaxon G'anieva, Tojimamatov Jamshidbek //CHARACTER ACTENTATION IN ADOLESCENTS// International Journal for Innovative Engineering and Management Research Volume 10, Issue 04, Pages: 153-157.
16. H. Ganieva //SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF SELF-CONSCIOUSNESS OF STUDENTS// EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. [Vol. 2 No. 4. 2021](#). 190-193 pages.

17. Ғаниева Халимахон Ахматхоновна //The Study Of Socio-Psychological Problem Of Loneliness// Turkish Journal of Computer and Mathematics education Vol.12 No.12 (2021), 2580-2590
18. Ғаниева Халимахон Ахматхоновна //Талаба ёшларнинг ўз-ўзини англашини ижтимоий психологик механизмлари// ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ. 2021 йил 1/3, 46-49 бетлар.
19. G'aniyeva Xalimaxon Akhmatxonovna //PSYCHOLOGICAL FUNDAMENTALS OF THE SOCIAL ENVIRONMENT IN PERSONAL DEVELOPMENT// EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Volume1 Issue02, May 2021. 717-724 page
20. Ganieva Khalimakhon Akhmatkxonovna //PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF GENIOLOGY ASSIGNMENT IN YOUNG PEOPLE// GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) Vol. 9, Issue 12, Dec.(2021) 335-337 pages.
21. Ganieva Khalimakhon Akhmatkxonovna, Tojimatov Jamshid //PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF SUICIDAL BEHAVIOR OF MINORS// GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) Vol. 9, Issue 12, Dec.(2021) 1053-1058 pages.
22. Ғаниева Халимахон Ахматхоновна, Ж.Тожимаматов //Ёшлар – янги Ўзбекистон, янги Ренессанс бунёдкорлари// “Ёшлар – янги Ўзбекистон, янги ренессанс бунёдкорлари” мавзусидаги илмий-амалий анжуман материаллари 2021 йил, 321-323 бетлар.
23. Парпиева Одинахан Рахмановна, Хайриллоев Холдорбек Ихтиёржонович //АКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ УЧЕБНЫХ ИГР И СИМУЛЯЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОДГОТОВКЕ ВРАЧЕЙ// International scientific-online conference: INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS. [Vol. 2. No. 18 \(2023\)](#). 124-128.
24. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, A.Ruzimatova //CREDIT-MODULE SYSTEM OF EDUCATION// O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 20.08.2022 yil. 10-SON. 83-87 бетлар.
25. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, Ro'zimatova Arofatxon Maxmudjon qizi //TA'LIM OLUVCHILARNI FANLARNI O'ZLASHTIRISHGA QIZIQTIRISH USULLARI// IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI. 5 OKTYABR / 2022 YIL / 22 – SON. 226-230 betlar.
26. Парпиева Одинахан Рахмановна, Раззоқов Бахтиёр Хабибуллаевич //ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ТУРЛАРИ ВА НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ// Международный научный журнал «Научный импульс». № 5(100), часть 2. Декабрь, 2022. 204-210 стр.
27. Mirzajonova E. ACTUAL PROBLEMS OF INCLUSION IN THE CONTEXT OF SOCIAL PARTNERSHIP. Uzbek Scholar Journal. 2022/5/28. 96-101 pages.
28. Mirzajonova Eleonora Topvoldiyevna, Xomidov Abdullajon Adxam o'g'li //ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ МЫШЛЕНИЯ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ РЕЧИ, ОБУЧАЮЩИХСЯ В УСЛОВИЯХ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ// International Journal

of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers. Volume-11| Issue-1| 2023. 217-225 pages.

29. Eleonora Topvoldievna Mirzajonova, Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva //Modern Special Preschool Education: Problems and Solutions// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Vol. 9. 06-2022. 100-106 pages.

30. Topvoldievna Mirzajonova Eleonora, Abdukadirova, Yulbarsova Laura //Actuality of psychological support in work with children from the risk group// ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, Volume 12 | Issue 6 | 2022. 51-56 pages.

31. Abdukadirova Laura Yulbarsova // [Actual questions of psychological research of laziness among pupils](#)// Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. Volume 12 | Issue 5 | 2022. 318-323 pages.

32. Одинахон Рахмановна, П., & Бахтиёр Хабибуллаевич, Р. (2023). ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ТУРЛАРИ ВА НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ. *Scientific Impulse*, 1(5), 1204-1207.

33. Abdukadirova Laura Yulbarsova, Mirzajonova Eleonora Topvoldievna //The importance of reading competencies in the context of the “industry 4.0” industrial revolution// ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. Volume 11, Issue 1, 2021. 205-210 pages.

34. L.Yu.Abduqodirova, Aziza Sobirova //IQTIDORLI O‘QUVCHILARDA SAMARALI KOPING XULQ-ATVORNI SHAKLLANTIRISH MAMLAKAT INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA// Academic Research in Educational Sciences. Volume 3 | Issue 5 | 2022. 1357-1363 pages.

35. Abdukadirova Laura //THE MAIN APPROACHES TO THE STUDY OF THE DIFFICULT LIFE SITUATION IN SOCIO-PSYCHOLOGICAL RESEARCH// European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 7 No. 12, 2019. 781-789 pages.

36. Маткаримова, Н. М. (2020). Хоразмнинг анъанавий таомлари (монография-альбом). Школа Науки, (8-2), 1-33.